

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRDA TURIZM RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-IQTISODIY ASOSLARI

Safarova Shahnoza Mustafo qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Turizm sohasida xizmatlar
texnologiyasi” yo’nalishi 2-kurs talabasi

Shahnozasafarova882@gmail.com

Turdiyeva Gulnoza Mamanazar qizi

Ilmiy rahbar, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Umumkasbiy va ixtisoslik fanlar” kafedrası o’qituvchisi

+998 93 105 96 27 gulnoza.nazarovna@bk.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pandemiya sharoitida turizm sohasidagi hamkorlik masalalariga to'xtalib o'tilgan. Davlatlarda yuzaga kelayotgan iqtisodiy hamda siyosiy vaziyatga baho berilib, hozirgi kunda boshqa sohalar kabi turizm sohasiga ham katta talofat yetkazayotgan COVID-19 pandemiyasining ta'sir kuchi haqida bayon etilgan. Shuningdek mazkur favqulodda holatda turizmni rivojlantirish yo'llari yoritib berilgan. Muallif tomonidan turizm sohasiga oid qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Xavfsizlik, «COVID-19», koronavirus, pandemiya, Davlat turizm qo'mitasi, UNWTO, epidemiya, xalqaro hamkorlik.

PROSPECTS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN DURING
THE COVID-19 PANDEMIC

ABSTRACT

This article focuses on tourism cooperation in a pandemic. According to him, an assessment was made of the economic and political situation in the country. The economic and political situation in the countries is assessed and the impact of the COVID-19 pandemic, which is currently causing great damage to the tourism sector as well as other sectors, is described. The ways of tourism development in the conditions of this emergency are also highlighted. The author offers suggestions and recommendations for improving legislation in the field of tourism



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Keywords. Security, «COVID-19», coronavirus, pandemic, State Committee for Tourism, UNWTO, epidemic, the international cooperation.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ ВО ВРЕМЯ ПАНДЕМИИ COVID-19

АННОТАЦИЯ

Эта статья посвящена сотрудничеству в сфере туризма в условиях пандемии. По его словам, была дана оценка экономической и политической ситуации в стране. Оценивается экономическая и политическая ситуация в странах и описывается влияние пандемии COVID-19, которая в настоящее время наносит большой ущерб туристическому сектору, а также другим секторам. Также выделены пути развития туризма в условиях данной чрезвычайной ситуации. Автор предлагает предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства в сфере туризма.

Ключевые слова. Безопасность, «COVID-19», коронавирус, пандемия, Государственный комитет по туризму, UNWTO, эпидемия, международное сотрудничество.

KIRISH

Turizm sohasini rivojlantirish ko'plab ish o'rinlari yaratilishiga, aholini ish bilan ta'minlash va aholi daromadlarini oshishiga olib keladi. Xususan, «Turizm Respublika iqtisodiyotining strategik sektoriga» aylanganligi belgilanib, «Turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish maqsadida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementasiya qilish» mazkur sohani jadal rivojlantirishning vazifalaridan biri hisoblanadi. Ammo so'ngi yillarda COVID-19 pandemiyasi eng muhim va oldindan aytib bo'lmaydigan voqealardan biri bo'ldi. Dunyo uzoq vaqt davomida ehtimol hech qachon bunday keng ko'lamlı inqiroz va vahimani ko'rmagan degan fikrni qo'llab-quvvatladi. COVID-19 virusining tarqalishi deyarli barcha mamlakatlar fuqarolari uchun uzoq masofalarga sayohat qilishni, o'z uyidan, shahardan, tumandan, viloyatdan va mamlakatdan chiqib ketish imkoniyatini cheklash asosiy talablardan biri edi. Albatta, bunday cheklovlar birinchi navbatda ham global, ham milliy miqyosda turizmni to'xtatib qo'ydi va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

ko'p hollarda hukumat fuqarolar o'rtasidagi aloqalarni to'xtatib turish uchun to'g'ri choralar ko'rildi. Shunga qaramay, kasallikdan ko'proq zarar ko'rgan davlatlar hali ham mavjudligi sababli xalqaro turizm uchun yopiq qoladi. Bu voqealar bizni 20-30 yil orqaga surdi va bu ayniqsa jahon miqyosida rivojlangan mamlakatlarda sezilarli darajada ko'rindi. UNWTOning ma'lumotiga ko'ra 2020 yilning birinchi choragida COVID-19 pandemiyasi xalqaro sayyohlar kelishi 22 foizga kamayishiga sabab bo'lgan. Umuman olganda, inqiroz dunyo turistik oqimining 2019 yil darajasiga nisbatan har yili 60% - 80% pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari surishda erishilgan yutuqlarga tahdid soladi. Sayyohlar nafaqat kasal, balki viruslarni tashuvchisi ham bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yilning 28 may kuni imzolagan «Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonida Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'siri oqibatida eng ko'p zarar ko'rgan va ko'rayotgan turizm hamda unga bevosita bog'liq bo'lgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash, yuz minglab ish o'rinlari va malakali mutaxassislarni saqlab qolish, ularning daromadlarini ushlab turish, shuningdek, mamlakatda sanitariya-epideomologik vaziyat yaxshilanishiga qarab turizm sohasini jadal qayta tiklash maqsadida bir qancha takliflar berilgan. Bularning barchasi vaziyatni barqaror rivojlantirish maqsadlariga sodiqlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqilib, bir tomondan sog'lom turmush tarzi va farovonligini ta'minlashdir. Bu albatta butun insoniyat uchun eng muhim va hayotiy dolzarblikdir. Boshqa tomondan, uzluksiz, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, zudlik bilan turizm rivojlanishini ta'minlashning yangi shakllari va vositalarini topish va amalga oshirish zarurati tug'ildi. Maqolaning maqsadi -O'zbekiston turizm industriyasining barqaror rivojlanishi bilan bog'liq voqealarni COVID-19 ta'siriga tenglashtirish va tavsiyalarni shakillantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida «Turizmni rivojlantirish bo'yicha 2021 yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, turizm ob'yektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash uchun byudjetdan 1 trillion so'm ajratiladi» deb ta'kitlaganlar. Bundan ko'rinib turibiki, keyingi rivojlanish va iqtisodiy xavfsizlik davlatimizning turizm sohasida amalga oshiriladigan vazifalarini hamda barqaror rivojlanishning ustivor yo'nalishlarini belgilab beradi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

- TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Kelajakda sayohatchilar dam olish uchun xavfsiz va tibbiyot darajasi yuqori bo'lgan davlatlarni qidira boshlaydilar. Ular jamoat transporti turlarini xoxlashmaydi. Koronavirus epidemiyasidan so'ng sayohatchilar ko'plab notanish odamlar bilan bir xonada bo'lishni xoxlashmaydi. Ushbu fobiya tezda o'tib ketmaydi, lekin bir muncha vaqt davom etishi aniq. Shularni inobatga olgan xolda choralar ko'rilishi turizmni rivojlanishiga turtki bo'lishi muqarrar. Bizningcha, yaqin bir necha oy ichida turizm sohasidagi vaziyat yaxshilanishi mumkin. Biz uni tahlil qilamiz, qarorlar qabul qilamiz va kelajakka strategiyani yaratamiz. Biz bunga qarshi kurashishda inqirozni boshqarish va uni yumshatib borish bilan bir qatorda kelajakni rejalashtirib borishimiz kerak. Turizmni qayta tiklash hamda uni iqtisodiyotga qo'shadigan ulushini oshirish uchun bosqichma bosqich harakat qilib borishimiz kerak:

- Iqtisodiy qayta tiklanish. COVID-19 turizmga sifat jihatidan miqdoriy ta'sirlarini o'lchash, tiklanish bo'yicha izlanishlarga asoslanish, ayniqsa sayyohlik bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy va biznes tomonlarni qo'llab quvvatlash; Marketing va bozor. Marketing strategiyalarini ko'rib chiqish hamda reklamani rivojlantirish. Maxsulot turlarini diversifikasiyalash orqali ichida COVID-19 uchun tavsiyalar va ko'rsatmalar berish; Institutsional rivojlanish. Ya'ni bu yordam berish shiori ostida ko'plab kompanyalarga pandemiyadan so'ng o'z xizmatlarini moslashtirishga yordam berib borish. Turizm boshqaruvini rivojlantirish maqsadida davlat xususiy sheriklik va hamkorlikdagi harakatlarini jahon tajribasini o'rgangan holda rivojlantirib borish. Innovasion mahsulotlarni jadal joriy etish uchun resurslar turlari va mintaqada turizm sohasidagi texnologiyalarni tasniflashni taklif qilamiz. Xozirgi kunda turistik sayohatlar uchun vaziyat sekin asta yaxshilanib bormoqda. Karantin choralari tugagandan keyin turizm industriyasining qayta tiklanishining ijobiy tomonlari haqida va O'zbekistonda yangi modifikatsiyalangan turizm biznes tizimini ishlab chiqish va joriy qilish imkoniyatini beradi. Shunga qaramay, qanday choralar ko'rish va taklif qilish kerakligini tushunish uchun odamlarning navbvtdagi sayyohlik ta'tilini qanday tashkil qilishni rejalashtirayotgani haqidagi so'rovlarga e'tibor berish kerak. Albatta mamlakatning ayrim sohalari pandemiya tufayli jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. Bularga misol qilib gid-ekskursavodlar, mehmonxonalar, turizm bazalari va majmualari, dam olish uylari va zonalari, pansionatlar, kempinglar, motellar, milliy mehmon uylari, o'tovli oromgothlar, sanatoriyalar, kafe, restoran hamda turli hildagi ovqatlanish joylari.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Bu sohalar alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ularni jonlantirish bo'yicha samarali yo'l tutish va imkon qadar tezroq tizimli tiklanish va tiklanishning postulatlarini va tamoyillari belgilanishi kerak. Bu maqsadlar har qanday sharoitda ham zarur va dolzarbdir, ammo hozirgi inqiroz va pandemiya sharoitida barcha yoshdagi odamlar uchun sog'lom turmush tarzi va farovonligini ta'minlash albatta eng munosibidir. Agar turizmni iqtisodiy kategoriya nuqtai nazaridan emas, balki madaniy va sog'lomlashtirish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak dam olish bu maqsadga erishish uchun foydali vositadir, ammo fuqarolarning sog'lig'i uchun barcha choralar ko'rilishi kerak. Turizmni tiklash dasturi orqali bir qancha yangi strategiyalarni shakillantirish va ma'lum bir markazlarda qisqa muddatli masalalar bo'yicha maslahat va treninglar o'tkazish mumkin. Ushbu bosqichda biz ma'suliyatli va barqaror kun tartibini rivojlantirishga harakat qilishimiz kerak. Turizm haqida aniq aytilgan munosib ish bo'yicha va iqtisodiy o'sishga erishish davlatimizning boy madaniy tarixi va ko'plab xududlarini rivojlantirib borishga, xavfsizlikni kuchaytirib borishga olib keladi. Masalan, koronavirus pandemiyasidan so'ng agar biror kishi sayohat qilmoqchi bo'lsa, u yirik shaharlardan uzoqda joylashgan mintaqaga safar qilishni rejalashtiradi. Shunga o'xshash vaziyat boshqa mamlakatlarda ham rivojlanadi. Endi sayohatchilar xavfsizlikka ko'proq e'tibor berishadi. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Hammamizga ayyonki, biron bir davlat yakka holda ushbu pandemiya balosiga qarshi samarali kurash olib bora olmaydi. Biz birdamlik, hamkorlik va o'zaro g'amxo'rlik tamoyillari asosida ish tutishimiz lozim. Biz birgalikda ko'p narsaga qodirmiz». Albatta bu gapda juda katta ma'no yotadi. Har bir inson o'z ustida ishlab, dunyo tajribalarini tadbiq eta olsa iqtisodiy barqarorlikka ham erishishimiz muqarrar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi PF-5969-son «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish va boshqa global xavf-xatarlar davrida makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, aholini samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mamlakat aholisi daromadlari keskin pasayib ketishining oldini olish choralar ko'rib chiqilgan.

Mahalliy darajada yuksalish uchun jamoalarga online ta'limni yo'lga qo'yish, ommalashtirish, turistik yo'nalishlarni va shu mintaqadagi turizm mahsulotlarini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

o'qitib o'rgatib borishni yo'lga qo'yish bir qancha muammolarning yechimi bo'lishi ham mumkin. COVID-19 pandemiyasi davrida sayohatchilarga qulaylik yaratish maqsadida ommaviy axborot vositalari hamda internet saytlari orqali mansabdor shaxslar, siyosatchilar, davlat arboblari bilan muloqot qilishni yo'lga qo'yish turizm bilan bog'liq inqiroz payitda faol rol o'ynashi mumkin. Raqamli iqtisodiyotdan foydalanish, inson resurslarini rivojlantirish turizm sohasida alohida ahamiyatga ega bo'ladi ayniqsa pandemiyani yengish davrida. Bunday tashabbuslarni ishlab chiqish aholiga iqtisodiy foyda olishlari uchun imkoniyatlar beradi. Turizmni tiklash dasturi orqali bir qator yangi strategiyalar ishlab chiqilishi va qisqa muddatli maslahatlashuvlar va belgilangan markazlarda treninglar o'tkazilishi maqsaga muvofiq. Ushbu bosqichda biz mas'uliyatli va barqaror kun tartibini ishlab chiqishga intilishimiz kerak. Qonunchilikni va institusional asoslarni takomillashtirish, shuningdek, himoya doirasida xalqaro-huquqiy hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha quyidagi asosiy takliflarda umumlashtirilishi mumkin:

Pandemiyadan keyingi davrda O'zbekistonda turizmni qanday tiklash mumkin?

AQSh Global media agentligi (U.S. Agency for Global Media) bilan hamkorlikda tashkil etilgan treningda ma'ruza qilgan xalqaro konsultant, sobiq diplomat Temuri Yakkabashvilining ta'kidlashicha, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar reklama uchun eng arzon va qulay hisoblanadi, ammo internetda O'zbekiston haqida to'liq ma'lumot olishning iloji yo'q. «Mehmonlar uchun ikki va uch yulduzli mehmonxonalar tizimini kengaytirish kerak. O'zbekistonda turistlarga nisbatan «boy qatlam» sifatida qaralib, doimiy ravishda ularga qimmat xizmatlar taqdim qilinadi. Ammo statistik ma'lumotlar yaxshilab o'rganilsa, ularning aksariyati 60 yoshdan oshgan va iloji boricha o'rtacha xarajatlarni xohlovchi qatlam vakillari hisoblanadi. Transport xizmati sifati va narxlariga ham alohida ahamiyat berish judayam muhim», dedi Temuri Yakkabashvili. Yana bir muammoli vaziyat mehmonxonalar tarmog'i bilan bog'liq. Bu ichki turizmning rivojlanishida ham juda muhim omil hisoblanadi. Kun.uz muxbiri bilan suhbatda. Turizmni rivojlantirish assotsiatsiyasi raisi Dilshod Odilov mehmonxonalar qimmatligini izohlagan. «Butun dunyoda xizmat sektorida, xususan, mehmonxona tarmog'ida qo'shimcha qiymat solig'i mutlaqo yo'q yoki juda ham katta farq bilan iqtisodiyotda o'rnatilgan QQSdan past stavkada belgilangan. Masalan, turizmi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

yaxshi rivojlangan Turkiyada QQS 18 foiz qilib belgilangan, ammo mehmonxonalar uchun 8 foiz. Germaniya, Gretsiya, Fransiya – hammasida mehmonxonalar uchun QQS kamida 2 barobar past. Bizda bir xil 15 foizlik stavka belgilangan. Lekin O‘zbekistonda qo‘shimcha qiymat solig‘i mavzusini ko‘tarishga yuqoriroq turadigan tashkilotlarning «allergiya»si bor. Chunki QQS davlat budjetiga asosiy tushum keltiradigan soliq hisoblanadi. O‘zbekistonda mehmonxonaning soliq yuki biz olgan raqamlar bo‘yicha 37 foizga to‘g‘ri keldi. Buncha soliq yuki bo‘lishi juda katta raqam. Natijada mehmonxonalar xizmatlari narxini 37 foizga ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi. QQS tufayli, Turkiya va O‘zbekistondagi bir mehmonxonaning egasi bir xil pul topgan taqdirda, Turkiya mehmonxonasi O‘zbekistondagi mehmonxonadan 10 foiz arzon bo‘la oladi. Masalan, Turkiyada bitta xona 90 dollar bo‘lsa, O‘zbekistonda aynan shuncha pul topish uchun xonani 100 dollarga sotish kerak. Bu mehmonxonalar egasining aybi emas, bu tizimning xatosi», deb ta’kidlagan Dilshod Odilov. Hozirda mamlakatda mehmonxonalarga subsidiyalar berish muddati 2023 yilning 31 dekabrighacha uzaytirildi. Bu post-pandemiya davrida tarmoqning jon saqlab qolishi uchun ahamiyatli hisoblanadi. Yana bir narsaga e’tibor qaratish kerak. O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlarning juda katta qismida mamlakatning madaniy va tarixiy merosiga qiziqishi yuqori. Shu o‘rinda bitta narsaga ahamiyat berish muhim. Statqo‘m ma’lumotlariga ko‘ra, 2010 yildan beri O‘zbekistonda birorta muzey tashkil etilmagan. Madaniy turizmga bog‘liq bo‘lgan mamlakatda bunday holatning kuzatilishi ajablanarli. Madaniy turizm ko‘proq «bir martalik» tashriflarga ixtisoslashgan. Shu sababli qo‘shimcha ravishda biznes turizm (mamlakatning qishloq xo‘jalik potensialidan kelib chiqib), ziyorat turizmi, ekoturizm, sport turizmi kabi yo‘nalishlarga alohida ahamiyat qaratish kerak. Bundan tashqari, o‘zbek oshxonasi doimiy ravishda turistlarning e’tiborida bo‘lib kelgan. Bu tarmoqni rivojlantirish istiqbolli hisoblanadi. «Oziq-ovqat mahsuloti O‘zbekistondagi boy tarix va madaniyatning katta qismidir. Hayotiy va ijtimoiy voqealar ovqatlanish bilan bog‘liq», deyilgan O‘zbekiston haqidagi maqolada. Respublikada ziyorat turizmi bo‘yicha istiqbolli rejalarni amalga oshirishda katta salohiyat mavjud. Xususan, aholisi soni ko‘p bo‘lgan musulmon davlatlardan (Indoneziya, Pokiston, Malayziya, Turkiya, Bangladesh), shuningdek, Rossiyaning islom diniga e’tiqod qiluvchi sub’yektlaridan sayyohlarni jalb qilish sohaga katta imkoniyatlar ochib beradi. Bunda kelayotgan insonlarda ijobiy taassurot uyg‘otishning ahamiyati yuqori. Ammo bunda kelayotgan insonlarga qulay sharoit



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

yaratish kerak. Ammo ba'zi ziyorat yodgorliklarida tahorat olishga yetarli sharoit yaratilmagani yoki tahorat olishning pullik ekani bu yo'nalishda ijobiy turistik imijni shakllantirishga xalaqit berishi tabiiy. Bundan tashqari, halol standartlarni tatbiq qilishda kamchiliklar bor. O'zbekistonda bu borada ko'proq oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan bu talablar qo'llanishiga urg'u beriladi, ammo tashrif buyuruvchilar talablarida mehmonxona xizmatlarida (yuvinish vositalari, matolarning kimyoviy tarkibi) ham bu borada e'tiborliroq bo'lishga nisbatan e'tirozlar mavjud. Shuningdek, aeroportlar va temir yo'l vokzallarida namozxonalar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Din ishlari bo'yicha qo'mita ma'lumotlariga ko'ra, hozirda Turkiyada 30 milliondan ziyod Naqshbandiya tariqatiga e'tiqod qiluvchi insonlar istiqomat qiladi. Ammo o'tkazilgan so'rovnomalarga ko'ra, ularning ko'pchiligi shayx Bahouddin Naqshband maqbarasining Buxoroda ekani haqida ma'lumotga ega emas. 2021 yil 15 aprel sanasidan boshlab «Uzbekistan Airports» AJ havo kemalariga xizmat ko'rsatish uchun yig'im va tariflarni pasaytirish to'g'risida qarorni qabul qildi. Asosiy yig'im va tariflar o'rtacha 27 foizga pasaytirilib, O'zbekiston aeroportlariga muntazam yo'lovchi reyslarini bajaradigan xorijiy aviakompaniyalar uchun qo'llanadi. Bu qaror aviachiptalar narxlariga ijobiy ta'sir qilishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Karantin chora-tadbirlari to'xtatilgandan keyin turizm industriyasi qayta tiklash jarayonida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan tavsiyalar:

- Jamiyatning ichki turizmini keng yo'lga qo'yish va ichki turizm infratuzilmasini ishlab chiqish;
- Gid hamrohligida kichik guruhlarda sayyohlik sayohatlari imkoniyatlarini oshirish;
- Fuqarolarning barcha epidemiyaga qarshi choralarga roya qilishlari uchun ehtiyotkor bo'lishlari tufayli xizmatlar sifatining yuqori standartlariga roya qilish;
- O'z transportida mamlakat ichida sayohat qilishning moslashuvchan tizimini yaratish, mamlakat ichida turistik marshrutlar va buning uchun zarur infratuzilmani tashkil etish;
- Xizmat ko'rsatish tizim sifatini oshirish, shuningdek turistlarning jamiyatga bo'lgan ishonch darajasini oshirish;

Shubhasiz, hech bir davlat pandemiya oqibatlarini samarali bartaraf eta olmaydi. Biz hamjihatlik, hamkorlik va o'zaro g'amxo'rlik tamoyillari asosida harakat



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

qilishimiz kerak. Agar biz birgalikda harakat qilsak, insoniyat ko'p narsalarni qila oladi. Har kim o'z ustida ishlab, jahon tajribasini qo'llasa, yaxshi natija va barqarorlikka erishamiz. Umuman olganda hozirgi pandemiya sharoitida turizmni rivojlantirishga kam pul sarflab ko'proq yutuqqa erishish, turizm muzeyi va galereyalarini ochish, ko'plab ish o'rinlarini tashkil qilish, aholini ish bilan ta'minlashga sharoit yaratadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 49-son, 558-modda. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4861 of December 2, 2016 "On measures to ensure the accelerated development of tourism in the Republic of Uzbekistan." Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2016, No. 49, Article 558)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining turizmni jadal rivojlantirishga qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2019 й., 06/18/5611/2430-сон. (2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5611 of January 5, 2019 "On additional measures for the accelerated development of tourism in the Republic of Uzbekistan." // National Database of Legislation, 06.01.2019, No. 06/18/5611/2430)
3. UNWTO: «Международный туризм может упасть в 2020 году на 60%-80%»// май 05, 2020 // [Эл. ресурс] URL <https://zen.yandex.ru/id/> (3. UNWTO: "International tourism can increase by 60% -80% in 2020" // May 05, 2020 // [El. resource] URL <https://zen.yandex.ru/id/>)
4. O'zbekiston Respublikasi Farmoni «Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»28.05.2020. [Эл. ресурс] URL <http://uza.uz/oz/> (Decree of the Republic of Uzbekistan "On urgent measures to support the tourism sector to reduce the negative impact of the coronavirus pandemic" 28.05.2020. [El. resource] URL <http://uza.uz/oz/>)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 30.12.2020. <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkatamirziyoyeva-oliy-maj-lisu>

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

6. Norcheye A.N. "O'zbekistonda COVID-19 pandemiyasining turizmga ta'sirini yumshatish yo'llari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil 346-351 Б.

7. А. Очаров, М. Малкина "Влияние экономической нестабильности на развитие европейского туристского рынка" Современная Европа, 2021, № 2, с. 75-88

8. Xalq so'zi, 2020 yil 11 Aprel. // (Xalq So'zi, April 11, 2020) (People's Speech, April 11, 2020. // (People's Word, April 11, 2020))

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 19 martdagi PF-5969-son Farmon.

10. <https://kun.uz/uz/11780695> *Doston Ahrorov*



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE
SERIES